ISSN (Online): 2455-3662
EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal
Volume: 10| Issue: 10| October 2024|| Journal DOI: 10.36713/epra2013 || SJIF Impact Factor 2024: 8.402 || ISI Value: 1.188

PROBLEMS OF TRANSLATING ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS INTO UZBEK

Maftuna Abduvakhobova[1], Iroda Jorayeva[2]
[1]A Second-Year Student of the Faculty of Foreign Philology at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
[2]Scientific Supervisor

ANNOTATION
This article analyzes the difficulty encountered in the process of translating phraseological units from English to Uzbek, which are the most important units of any language. Furthermore, the role of lexical units in the translation of these units and some methods and considerations to overcome the problems faced by language learners are given.
KEY WORDS. *Phraseological units, stable compound, proverbs, alternative option, equivalent method, analogue.*

INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOMALARI

Muallif: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti 2-kurs talabasi
Abduvaxobova Maftuna Vohid qizi
Ilmiy rahbar: Iroda Ahmedovna Jo'rayeva

Annotatsiya. Ushbu maqolada har bir tilning eng muhim birligi hisoblangan frazeologik birliklarning ingliz tildan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida uchraydigan qiyinchilik tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bu birliklarning tarjimasida leksik birliklarning o'rni hamda til o'rganuvchilar duch kelayotgan muammolarni bartaraf etish uchun ba'zi usullar va mulohazalar keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar. Frazeologik birliklar, turg'un birikma, iboralar, muqobil variant, ekvivalent usuli, analog.

Kirish

Batahqiq, hozirgi kunga kelib tilshunoslikning ko'plab sohalari rivojlanib, yangi qirralari kashf etib kelinmoqda. Jumladan, tarjimashunoslikda alohida ahamiyatga ega bo'lgan frazeologiya sohasi ham tilshunoslikning muhim bo'lagi hisoblanib, bir maromda o'sishda davom etmoqda. Bu ilmiy terminning ta'rifiga to'xtaladigan bo'lsak, tilshunoslikda frazeologiya *(yunoncha "phrasis" – "ifoda" va "logos" – "ta'limot")* tildagi nutqga tayyor holda kiritilgan birliklarni hozirgi holati va o'tmishdagi taraqqiyotini tahlil qiluvchi bo'lim bo'lib, asosiy vazifasi frazeologizmlarning nutqda qo'llanish xususiyatlarini o'rganadi va ularni so'z birikmalaridan farqlashga xizmat qiladi. Chunki ibora so'zlar birikmasidan iborat bo'lishi kerak. Bu haqida V. V. Vinogradov, A. Abakumov, A. Shaxmatovlarning fikrlari qimmatga sazovordir [3;14]. Tildagi frazeologizmlarning ko'pchiligi xalq tomonidan yaratilgan bo'ladi. Shu o'rinda frazeologik olim A.V. Kunin aksariyat ingliz tili frazeologizmlarining muallifi noma'lumligini hamda ular xalq tomonidan yaratilgan degan fikrlarni asosli ravishda ko'rsatib o'tgan. Shunday qilib, frazeologizmlar sirasiga iboralar (proverbs), barqaror birikmalar (maqol, matal) kabilarni misol keltiramiz.

Ushbu soha bo'yicha butun dunyoda bir qancha olimlar sezilarli izlanishlar olib brogan va ilmiy tadqiqot ishlarini omma e'tiboriga havola etishga ulgurgan. Jumladan, o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o'rganish 1950-yillarda boshlandi. Bu sohada Y.Pinxasov, M.Hasanov, I.Qo'chqortoyev, Sh.Raxmatullayev, A.Mamatov kabi taniqli tilshunoslar ilmiy ishlar yaratganlar. O'zbek frazeologiyasi sohasida tilshunos olim Sh.Raxmatullayev qo'shgan hissasi ulkandir. U o'zbek frazeologik birliklarini lug'aviy birlik sifatida o'rganishni boshlab berdi. Uning ilmiy tadqiqotlari va bu ilmiy faoliyatning mevasi bo'lgan "Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari" (1955), "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" (1966), "Nutqimiz ko'rki"

ISSN (Online): 2455-3662
EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal
Volume: 10| Issue: 10| October 2024|| Journal DOI: 10.36713/epra2013 || SJIF Impact Factor 2024: 8.402 || ISI Value: 1.188

(1970), “O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati” (1978) kabi qator kitoblari o’zbek tilshunosligida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega [3;45].

Asosiy qism

Til o’rganuvchi talaba yoki o’quvchilar esa ingliz tilidagi mana shunday birliklarni o’zbek tiliga o’girishda bir qancha qiyinchiliklariga duch kelishmoqda hamda ushbu birliklarni o’zbek tilidagi tarjimasida muqobil variant topishda ham qator xatoliklarga yo’l qo’yishmoqda. Bunga asosiy sabab til o’rganuvchilar ushbu birliklarni so’zma-so’z tarjima qilishga urinishidir. Holbuki, frazeologik birliklar obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi vositalar bo’lib, ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta’sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi [1;144].

Yana bir dolzarb muammo sifatida shuni ta’kidlash joizki, ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qiladigan lug’atlar ham mukammal tuzilmagan, ya’ni aksariyat lug’atlar so’zning mustaqil ma’nosini chiqarib beradi va uning turg’un birliklar bilan birga kelish holatlariga misollar kamdan-kam topiladi. Aytaylik, ingliz tilidagi "a burnt child dreads the fire" iborasining o’zbek tilidagi tarjimasini lug’atlardan topish qiyin bo’lib, ma’nosini anglab yetish talaba yoki o’quvchilar uchun biroz qiyin. Ba’zi lug’atlarda *(Cambridge dictionary)* ingliz tilidagi tushuntirishlar *(definition)* berilganligini ko’rishimiz mumkin, ammo bu iborani qaysi vaziyatda ishlatish haqida ma’lumot berilmaydi. Masalan, yuqoridagi iborani o’zbek tilidagi muqobili “bir marta og’zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi” deb qaralsa, odatda bir marta xato ish qilgan inson, so’ngra doim ehtiyot bo’lishga harakat qiladi degan ma’noda qo’llanadi. Shu bois til o’rganuvchilar uchun qulaylik sifatida har bir tilning alohida qatlami bo’lgan frazeologik birliklarning qo’llanish maqsadini ko’rsatuvchi lug’at tuzish maqsadga muvofiq bo’lar edi.

So’zlarni tarjima qilish va ularning ma’nosini ona tilida aks ettirish katta mahorat talab etadigan faoliyatdir. Ana shunday mahurat egasi, tarjimon va olim G’aybulla Salomov o’zining asarlarida tarjima qilishdagi mana shunday nozik jihatlarga e’tibor qaratgan. Xususan, frazeologik birliklarni tarjima qilishning o’ziga xos quyidagi to’rt usulini ko’rsatib o’tgan:

Maqol, matal va idiomalar tarjimasida uch prinsip hukm suradi:

1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish;

2) asar o‘girilayotgan tildan monand muqobil variant topib qo‘yish;

3) frazeologizmni aynan, so‘zma-so‘z tarjima qilish.

Har uchala hol ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo‘ladi [1; 121]. Bu usullardan foydalangan holda tarjima qilish jarayonni qisman osonlashtirishga yordam beradi. Birinchi usulda ingliz tilidagi iboralarning o’zbek tilidagi ham semantik, ham leksik jihatdan teng bo’lgan ibora topishdir. Xususan, *“in the seventh heaven” – “yettinchi osmunda”* iborasini yaqqol misol sifatida keltirib o’tishimiz mumkin.

Ikkinchi usul bu ingliz tilidagi ba’zi iboralarning aynan tarjimasini topish mushkul bo’lgan vaziyatda, iboradagi ba’zi obrazlari o’zbek tilida o’zgargan muqobil variantini topishdan iboratdir. Masalan, inglizlar tilidagi *"nothing comes out of the sack but what was in it"* turg’un birikmani o’zbek tiliga *“qozonda bori cho’michga chiqadi”* deb tarjima qilinsa, ma’nodaga putur yetmaydi faqat ikki obrazlar (sack-to’rva-qozon) o’rtasida farq yuzaga keladi. Uchinchi tarjima usuliga to’xtaladigan bo’lsak, ikkala tildagi iboralardagi so’zlar bir biriga mos tushadi va ma’no ham aniq ifodalanadi. Misol uchun *“as red as a cherry” – “olmadey qizil”* yoki *“as cold as ice” – “muzday sovuq”* kabi keng qo’lladigan frazeologik birliklar so’zma-so’z tarjima qilinganiga guvoh bo’lamiz.

Shunday hollar bo'ladiki, tarjima tilida asliyat tiliga na ekvivalenti va na o'xshash frazeologik birikma topiladi.Bunday hollarda turg’un birikmalarni tasviriy ifoda yo’li bilan tarjima qilish ma’qul ko’riladi. Tasviriy usul erkin ko'chma ma'noga asoslanmagan frazeologik birliklami qo'lIashni talab etadi: "a skeleton in the cup" - "oila siri", "in a whole skin"- "bekamu-ko'st, soppa-sog', sog'-salomat beziyon" va shu kabilar [4;21].

Umuman olganda, tarjima san’ati ancha ko’p kuch va bilim talab qiladigan jarayondir. Har qanday so’zni yoki so’z birikmasini tarjima qilishda tarjimon hech bir detalni chetda qoldirishi kerak emas. Ayniqsa, iboralarni bir tildan boshqasiga o’girishda milliy kaloritning saqlanishi eng asosiy e’tiborga olinishi kerak bo’lgan xususiyatdir. O’z o’rnida bunday muvozanatni saqlash alohida vaqt talab etadi va tilning so’z boyligi ham muhim rol o’ynaydi. Ma'no jihatdan *“to carry coals to Newcastle”* iborasi, *“Marg'ilonga atlas tashimoq”*, “Chinozga baliq tashimoq” deb emas, balki neytral ma'noga ega *“daryoga suv tashimoq”*, *“o'nnonga o'tin olib bormoq”* kabi neytral birikmalar topish, zarur bo'lsa, yangi erkin frazeologik birliklar yaratish tavsiya etiladi [6;96].

Yana bir mashhur olim A.V.Kuninning inglicha-o’zbekcha iboralar tarjimasidagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir. U tomonidan tuzilgan “Inglizcha-ruscha frazeologik lug‘at”ning kirish qismida frazeologik birliklarni tarjima qilishda lug‘atda qo‘llanilgan usullar haqida ma’lumot berilgan va bu quyidagi 6 usuldan iborat:

1. Ekvivalent usuli ya’ni o’zbek tilidan aynan mos keladigan ibora topishdir: as cold as ice - muzdek sovuq;

ISSN (Online): 2455-3662
EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal
Volume: 10| Issue: 10| October 2024|| Journal DOI: 10.36713/epra2013 || SJIF Impact Factor 2024: 8.402 || ISI Value: 1.188

2. Analog, ya'ni ingliz tilidagi iboraga mazmunan muqobil, ammo obraz jihatidan farq qiladigan birlik topish: when pigs fly - tuyani dumi yerga tekkanda;
3. Tasviriy tarjima (free word combination) usulida frazeologik birliklar erkin so'zlar bilan tarjima qilinadi: cross the floor of the house - bir partiyadan boshqasiga o'tmoq;
4. Antonim tarjima, ya'ni inkor shakldagi iborani tarjima tiliga bo'lishli mazmun bilan yoki aksincha o'girish: Don't count your chickens before they are hatched – Jo'jani kuzda sanaymiz ;
5. Kalkalash yoki so'zma so'z tarjima. Tarjimon inglizcha fikrlash, iboradagi obrazni ko'rsatmoqchi bo'lganda qo'llaniladi: The moon is not seen when the sun shines – Quyosh nur sochayotganda oy ko'rinmaydi;
6. Aralash tarjima (Combined translation) usulidan yuqoridagi usullar mos kelmasagina foydalanish mumkin: "look not a gift horse in the mouth" - "berganning betiga qarama" kabi.

Yuqoridagi misollardan ko'rishimiz mumkinki, frazeologik birliklarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda bu iborорani har jihatdan tahlil qilish kerak bo'ladi. Uning faqatgina bir jihati, ya'ni semantik tomonidan emas, balki undagi milliy ruh va leksikologik jihatlari ham inobatga olinishi lozim.

Xulosa

Keltirilgan fikr-mulohazalarga xulosa qilib shuni aytish joizki, frazeologiya bu tilning ko'rki deb qaraladi va u orqali hozirgi kunda insonlar tomonidan tilga qo'yilgan talab qondirolmoqda, ya'ni qisqa, ta'sirli va majoziy ma'no orqali fikr ifodalash istagi. Ingliz tilidadagi frazeologik birliklarning tarjimasida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni yuqorida ta'kidlangan usullar yordamida bartaraf etish til o'rganuvchilar uchun qulay bo'la oladi. Bundan tashqari, tilni o'rganish jarayonida o'sha xalqning madaniyati, urf-odatlari bilan ham tanishish tildagi so'zlarni osonroq tarjima qilish imkoniyatini oshiradi. Yana bir talabalarga yengilik yaratib beryechim sifatida alohida inglizcha-o'zbekcha iboralarning ma'no-mazmunini to'liq ifodalaydigan lug'at tuzishni kiritish mumkin. Bu borada fikr-mulohazalar talaygina bo'lib, olimlardan va yosh yaratuvchilardan ko'proq izlanishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *G'.Salomov Tarjima nazariyasi asoslari. O'quv qo'llanma. -T.: "O'qituvchi"nashriyoti, 1983. -232 b.*
2. *Mamatov A. E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi. -T.:1997.-B.37. 2*
3. *Rasulova M.I. Ingliz va o'zbek tillarida kasbga oid frazeologizmlarning semantik –grammatik va uslubiy xususiyatlari. -Buxoro, 2015. -45 b.*
4. *Raxmatullayev Sh. O'zbek tili frazeologiyasining ba'zi masalalari. -T.: Fan. 1966.-B.55.*
5. *Кунин А.В. Англо-русский фразелогический словарь. - М.1967.*
6. *G'.Salomov Rus tilidan o'zbekchaga maqol, metal va idiomalarni tarjimaqilishmasalasiga doir. - T.: "Fanlar Akademiyasi" nashriyoti, 1961. -159 b.*
7. *Yusupov O. Y. Etymological and pro-etymological doubletsinenglish. Theoretical & Applied Science, (2), (2020). 417-420.*
8. *https://en.wikipedia.org/wiki/Phraseology.*
9. *https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-va-o-zbek-tillaridagi-frazeologik-birliklarning-antropopragmatik-tadqiqi/viewer.*
10. *https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologiya.*